

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MINTAQAVIY
IQTISODIYOTDAGI ROLI**

Kaxorova Zamira Safaraliyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Assistenti

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 26.01.2026

Revised: 27.01.2026

Accepted: 28.01.2026

KALIT SO'ZLAR:

*Mintaqaviy
iqtisodiyot, kichik
biznes, tadbirkorlik,
iqtisodiy islohotlar,
bandlik, innovatsiyalar,
raqobatbardoshlik,
iqtisodiy barqarorlik,
davlat siyosati, iqtisodiy
diversifikatsiya,
qo'shilgan qiymat,
hududiy rivojlanish,
klasterlash, mahalliy
resurslar.*

*Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi
mintaqaviy iqtisodiyotida kichik biznes va
tadbirkorlikning roli tahlil qilinadi. Maqolada
quyidagilar ko'rib chiqiladi: kichik biznesning
iqtisodiy mazmuni, uning YAIMdagi va bandlikdagi
ulushi, mintaqalar kesimida taqsimlanishi, sektorlar
kesimida faoliyati, mavjud muammolar va tavsiyalar.*

Kirish

Jahon amaliyotida kichik biznes mintaqaviy iqtisodiyotning eng faol segmenti sifatida iqtisodiy o'sish, innovatsiyalarni joriy etish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilganidek, O'zbekistonning har bir mintaqasida kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyatini erkinlashtirish va raqobatbardoshligini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'zni beqiyosdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonolari nafaqat

ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki xizmatlar sohasini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish, mahalliy resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, qishloq joylarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi aholi bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, soliqlar tortish tizimini soddalashtirish, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlari yaratish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab o'tilgan. Mazkur strategiya mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish va xususiy sektorning ulushini oshirish yo'lida muhim bosqich bo'ldi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi va hududiy rivojlanishida hal qiluvchi o'ringa ega.

S.S. G'ulomov (1998) o'z asarida kichik biznesni iqtisodiy o'sishning faol omili sifatida baholab, uning bozor iqtisodiyotidagi moslashuvchanlik xususiyatlarini asoslagan.

B.Yu. Xodiev va M.S. Qosimova (2010) kichik biznes muhitini belgilovchi siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tizimli yondashuvda tahlil qilgan. U.V. G'afurov (2017) esa kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishlarini ilgari surgan.

Xorijiy manbalardan Y. Shumpeter (1982) tadbirkorlikni iqtisodiy yangilanish va innovatsiyaning asosiy manbai sifatida talqin etgan bo'lsa, R. Xizrich (1993) tadbirkorlikni "qiymatga ega bo'lgan yangilik yaratish jarayoni" deb ta'riflaydi.

Umuman olganda, ushbu adabiyotlar kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini nazariy, amaliy va statistik jihatdan yoritib, ularning iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlashdagi muhim rolini asoslaydi.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda kichik biznes va tadbirkorlikning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganish uchun tizimli yondashuv, statistik tahlil, solishtirish, induksiya va deduksiya usullari qo'llanildi. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari, qonunlar, hukumat qarorlari va statistika agentligi ma'lumotlari asosida tahliliy xulosalar shakllantirildi. Ma'lumotlar hududlar kesimida guruhlab, kichik biznesning YAIMdagi ulushi, bandlik va eksportdagi hissasi o'rganildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

O‘zbekiston mintaqalarida kichik biznes va tadbirkorlik so‘nggi yillarda barqaror rivojlanib, iqtisodiy o‘shishning asosiy omillaridan biriga aylandi. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 72,9 %, eksportdagi ulushi esa 3,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgan.

Hududlar kesimida eng yuqori faollik Toshkent shahri, Farg‘ona, Samarqand, Andijon va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan. Ushbu mintaqalarda kichik korxonalar sonining o‘shishi, xizmatlar va ishlab chiqarish tarmoqlarining kengayishi aholi bandligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Sektorlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesning 51 % dan ortig‘i xizmatlar sohasida, 25 % qishloq xo‘jaligida, 13 % sanoatda faoliyat yuritadi. Bu esa iqtisodiy diversifikatsiyaning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, 2020–2024-yillar oralig‘ida kichik biznes subyektlari soni 104 % ga oshgan bo‘lsa-da, ayrim hududlarda infratuzilma va moliyalashtirish muammolari mavjud. Shu bois, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini mintaqaviy xususiyatlarga moslashtirish zarur.

Umuman olganda, tahlil natijalari kichik biznesning iqtisodiy faollikni oshirish, bandlikni ta’minlash va hududlararo iqtisodiy muvozanatni barqarorlashtirishdagi rolini yaqqol namoyon etadi.

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotda muhim o‘rin egallamoqda: ular yalpi ichki mahsulotning qariyb 54,3 foizini, ish bilan band aholining 74,5 foizini tashkil etadi. Shu bilan birga, kichik biznes mamlakat eksport salohiyatiga ham sezilarli hissa qo‘shmoqda, 2024-yil yakuniga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan eksport hajmi mamlakatimiz YaIM sini 34,1 foizini tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich mintaqaviy darajada ham sezilarli farqlar bilan namoyon bo‘lib, Surxandaryo, Xorazm, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida yalpi hududiy mahsulotning eksporti ulushi borasida yetakchilik qilmoqda.

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami mahsulot (ishlar, xizmatlar) eksportidagi ulushi¹⁵

№	Mintaqalar	2010 yil	2015 yil	2020 yil	2023 yil	2024 yil	2024 yilda 2010 yilga nisbatan %o‘zgarishi
1.	O‘zbekiston Respublikasi	13,7	27	20,5	27,9	34,1	248,9
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11,5	28,4	21,6	24,3	28,5	247,8
3.	Andijon viloyati	6,3	50,8	43,2	29,2	37,3	592,1

¹⁵ Stat.uz O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi sayti ma’lumotlari

4.	Buxoro viloyati	7,4	35,8	43,7	45,6	58,6	791,9
5.	Jizzax viloyati	43,5	41,8	61,6	43,3	63,2	145,3
6.	Qashqadaryo viloyati	8,7	9	56,7	22,5	20,6	236,8
7.	Navoiy viloyati	10,1	14,9	11,8	9,3	8,2	81,2
8.	Namangan viloyati	86,9	75,9	52	42,5	50,4	58,0
9.	Samarqand viloyati	61	74,6	57,2	41,1	46,2	75,7
10.	Surxondaryo viloyati	18,7	34	63,1	71,5	87,1	465,8
11.	Sirdaryo viloyati	29,4	64,3	79,9	63,4	64	217,7
12.	Toshkent viloyati	16,9	39,8	28,1	32,5	35,4	209,5
13.	Farg'ona viloyati	18,2	36,7	57,4	68,2	61,6	338,5
14.	Xorazm viloyati	8,6	17,7	70,2	63,4	67,1	780,2
15.	Toshkent shahri	14,7	24,1	19,8	21,2	26,7	181,6

Shu bois, mintaqaviy iqtisodiyotni tahlil qilishda kichik biznesning faolligi, ularning iqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushi va hududlar kesimida rivojlanish tendensiyalarini o'rganish zarurdir. Kichik biznes va tadbirkorlikning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni, ularning iqtisodiy o'sish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri, shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va istiqboldagi yo'nalishlarni belgilashda muhim hisoblanadi.

5.Xulosa va takliflar.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar jarayonida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Ularning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rni yil sayin ortib, iqtisodiy o'sish, bandlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. 2024-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 72,9 foizni, eksportdagi ulushi esa 3,8 milliard AQSh dollarini tashkil etgani bu sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi o'sib borayotgan salohiyatini yaqqol ko'rsatadi.

Hududlar kesimida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning eng yuqori faolligi Toshkent shahri, Samarqand, Farg'ona, Andijon va Navoiy viloyatlarida kuzatilmoqda. Bunda transport-logistika infratuzilmasi, moliyaviy resurslarga yaqinlik va iste'mol bozori hajmi kabi omillar muhim rol o'ynamoqda. Shu bilan birga, ayrim chekka hududlarda kichik biznesni rivojlantirishda moliyalashtirish manbalari cheklanganligi, infratuzilma yetishmovchiligi va kadrlar salohiyati pastligi kabi muammolar mavjud. Bunday hududlarda tadbirkorlik faolligini oshirish uchun hududiy dasturlarni mahalliy xususiyatlardan kelib chiqib shakllantirish talab etiladi.

Umuman olganda, kichik biznes va tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida mintaqaviy rivojlanishning asosiy omiliga aylangan. Kichik korxonalar nafaqat mahalliy resurslardan samarali foydalanish va yangi ish o'rinlari

yaratish, balki eksport salohiyatini oshirish, innovatsiyalarni joriy etish hamda aholi farovonligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adobiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF–60, 2022-yil 28-yanvar.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezident Qarori PQ–39, 2024-yil 15-yanvar.
3. “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2012-yil.
4. Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari (www.stat.uz, 2024–2025-yillar).
5. G‘ulomov S.S. Kichik biznes va uning iqtisodiy o‘shidagi roli. – T.: Iqtisodiyot, 1998.
6. Xodiev B.Yu., Qosimova M.S. Tadbirkorlik muhitini rivojlantirish nazariyasi. – T.: Fan, 2010.
7. G‘afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari. – TDIU, 2017.
8. Schumpeter J. Theory of Economic Development. – Harvard University Press, 1982.
9. Hisrich R. Entrepreneurship: Creating a New Venture. – McGraw-Hill, 1993.